XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL'A TUMANI KENGASHI QARORI

XALÍQ DEPUTATLARÍ ELLIKQALA RAYONLÍQ KEŃESINIŃ SHESHIMI

2021 - yil 30 - dekabr VI-34-80-13-194-K/21 Ellikqal'a tuman hokimligi

Ellikqal'a tumanidagi qabristonlar, ziyoratgoh va istirohat bog'iga nom berish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuniga, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2021-yil 25-noyabrdagi 158-sonli majlisi bayonnomasi qaroriga, tuman adliya bo'limining 24.12.2021 yigi 7-sonli xatiga asosan tuman hokimining maslaxatchisi M.Sherbaevning taklifini tinglab muhokama qilib hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashining Ta'lim, sog'likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining 17.12.2021-yildagi qarori ma'lumot uchun qabul qilinsin (ilova qilinadi).

2. O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuniga, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2021-yil 25-noyabrdagi 158-sonli majlisi bayonnomasi qaroriga, tuman adliya bo'limining 24.12.2021-yigi 7-sonli xatiga asosan tuman hokimining maslaxatchisi M.Sherbaevning taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin (ilova qilinadi).

3. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining

Ellikqal'a tumanidagi 21 ta qabristonlarga, 2 ta ziyoratgoh va 1 ta istirohat bog'iga nom berish to'g'risidagi takliflari ma'qullanib, 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin (ilova qilinadi).

4. Tuman statistika bo'limi (U. Davletov) va Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastr palatasi Ellikqal'a filiali (A.Atadjanov) ushbu qarorning 1-ilovasida nomlari ko'rsatilgan geografik obyektlarni qayta ro'yhatdan o'tkazish vazifasi yuklansin.

5. Tuman hokimining maslahatchisi (M.Sherbaev) tegishli ovul va mahalla fuqarolar

yig‘inlari

raislari bilan birgalikda 10-kun muddat ichida ushbu qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan nomlari ko‘rsatilgan geografik obyektlari bo‘yicha shu hududlarning axolisi o‘rtasida tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

6. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (N.Serjanov), tuman qurilish bo‘limi (N.Qulimbetov), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (A.Atadjanov), tuman moliya bo‘limi (M.Rozumov) hamda tegishli ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari:

yangi nomlangan va nomlari o‘zgartirilgan qabristonlar, ziyoratgohlar va istirohat bog‘ining ushbu qarorning 1-ilovasiga muvofiq nomlarini belgilangan tartibda ko‘rsatkich va belgilarini hamda peshlavhalarini zamonaviy dizayn asosida tayyorlanishini va o‘rnatilishini;

ushbu qarordan kelib chiqqan holda tegishli hujjatlariga zarur o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasinlar.

7. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining maslahatchisi M.Sherbaevga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish va uning bajarilishini doimiy komissiya yig‘ilishlarida muhokama qilib borish vazifasi Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashining Ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Yuldasheva zimmasiga yuklansin.

9. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

10. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **Avezov S. S.**

Халқ депутатлари Элликқалъа
туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-34-80-13-194-K/21-сон қарорига
1-илова

Ellikqal’a tumanida nom berish bo‘yicha taklif qilinayotgan

qabristonlar, ziyoratg va va istirohat bog‘i

RO‘YXATI

№	Manzili	Obyektlar nomi	Taklif qilinayotgan nom
QABRISTONLAR			
1.	“Iftixor” MFY	“Narimjon bobo”	
2.	“Kichik Guldursun” MFY	“Sadi Vaqqos bobo”	
3.	“Toza-bog‘” OFY	“Imomjon bobo”	
4.	“Sarabiy” OFY	“Muso Eshon bobo”	
5.	“Sarabiy” OFY	“Sharofat bobo”	
6.	“Sarabiy” OFY	“Bibi mushkul-kushod”	
7.	“Paxtachi” MFY	“Shayxi zamon bobo”	
8.	“Paxtachi” MFY	“Musofirjon bobo”	
9.	“Cho‘pon” MFY	“Sadaddin bobo”	
10.	“Qilichinoq” OFY	“Sher emgan bobo”	
11.	“Qilichinoq” OFY	“To‘rt shovvoz bobo”	
12.	“Do‘stlik” OFY	“Latip sort”	
13.	“ Do‘stlik” OFY	“Tajiniyaz bobo”	
14.	“Amirabod” OFY	“Zulli zilol”	
15.	“Amirabod” OFY	“Latipboy bobo”	
16.	“Guliston” OFY	“Bibisotiya”	
17.	“Oq Oltin” MFY	“Niyozjon vali”	
18.	“Oq Oltin” MFY	“To‘mpoq bobo”	
19.	“Qizilqum” OFY	“Shavtenxo'ja”	
20.	“Qizilqum” OFY	“Sarixo‘ja ota”	
21.	“Qizilqum” OFY	“Ko‘kcha”	
Ziyoratgoh			
22.	“Iftixor” OFY	“Abdulla Norinjoniy”	
23.	“Saxtiyon” SHFY	“Kechirmas ota”	
Istirohat bog'i			
24.	“Navoiy” MFY	“Jaloliddin Manguberdi”	